



O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM MARSHRUTLARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Z.Q.Fozilova, O.Xamroqulov

"Arxitektura nazariyasi va tarixi" kafedrası o'qituvchisi, SamDAQU.

z.fozilova@samdaq.edu.uz

Yorqulov F.I.

SamDAQU "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrası o'qituvchisi SamDAQU.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tabiiy-iqlimiy va geografik shart-sharoitlari, ekoturizm ob'ektlarini paydo bo'lishi va rivojlanish tamoyillari, ekoturizm ob'ektlarning rivojlanishida infratuzilma ob'ektlarining ta'siri, mustaqillik yillarida ekoturizm marshrutlarini rivojlanish yo'llari hamda yurtimizga turistlarni jalb qiladigan va ekoturistik inshootlar loyihalarini ishlab chiqish, Samarqand viloyati misolida ekoturizm marshrutlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-loyihaviy tamoyillarning ilmiy-uslubiy yo'llari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Turizm, infratuzilma, marshrut, ekoturizm, ekoturistik inshoot.

Annotation. In this article, the natural and climatic and geographical conditions of the development of ecotourism in Uzbekistan, the principles of the emergence and development of ecotourism objects, the influence of infrastructure objects in the development of ecotourism objects, the ways of development of ecotourism routes in the years of independence and the development of projects of ecotouristic structures that attract tourists to our country,

Keywords. Tourism, infrastructure, route, ecotourism, ecotouristic construction.

Аннотация. В данной статье рассматриваются природно-климатические и географические условия развития экотуризма в Узбекистане, принципы возникновения и развития объектов экотуризма, влияние объектов инфраструктуры на развитие объектов экотуризма, пути развития маршрутов экотуризма в годы независимости и разработка проектов экотуристических сооружений, привлекающих туристов в нашу страну, на примере Самаркандской области. научно-проектных принципов по развитию научно-разработаны методические пути.

Ключевые слова. Туризм, инфраструктура, маршрут, экотуризм, экотуристическое сооружение.

O'zbekistonning qadimiy madaniy yodgorliklari, xalqimizning ko'p qirrali turmush sharoiti, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida turli sayr-sayohatlar uyushtirishni taqozo etadi. O'z navbatida esa xorijiy

mamlakatlardan tashrif buyurayotgan sayyohlar, mutaxassislar hamda davlat arboblari yuqori darajada madaniy xizmat ko'rsatish ham hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Turizm sohasi hozirgi kunda jahondagi eng serdaromad sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirmoqdalar. Jumladan, mamlakatimizda ham bu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston boy turistik salohiyatga va turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega, shu tufayli mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar, Prezidentimiz qaror va farmonlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5326 sonli Farmoni [2], 2018 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3509 sonli va "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3510 sonli Qarorlari [3], 2018 yil 7 fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3514 sonli Qarori [4], 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611 sonli farmoni shular jumlasidandir[5].

Umume'tirof etilayotgan yuzlab tarixiy yodgorliklarimiz, tog'lar, dasht va cho'llarni o'z ichiga olgan go'zal va betakror tabiati, mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-etnik merosi kabilar dunyoning turli burchaklarida yashayotgan xalqlarni O'zbekistonga jalb qilmoqda. Shu tufayli, mamlakatimizda mintaqalar kesimida ekoturizm sohasini rivojlantirishni tadqiq qilish, ularning muammo va kamchiliklarini o'rganish, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish, mintaqaviy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kabilar eng muhim masalalar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish, ayniqsa, ekoturizmni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekistonda turizmni rivojlanishida ekoturizm muhim omil bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda milliy bog'larimizdan ekoturizm ob'ekti sifatida foydalanmoqdamiz, tabiat qo'riqxonalaridan ekoturizmga foydalanishga hozircha ruxsat berilmagan. Mamlakatimizda aholining ekologik madaniyati va ekologik bilimlarini oshirish, tabiatni muhofaza qilish qonunlarini yaxshi bilish va hurmat qilish, tabiat resurslarini muhofaza qilish dasturlariga ixtiyoriy hamkorlik qilish ishlariga tayyorlash, ekoturizmning tartib-qoidalarini, tamoyillarini o'rgatish kabi amaliy ahamiyatga ega.

Ekoturizm - tabiiy muhitga nisbatan ma'suliyat bilan sayohat qilish, tabiiy hududlarni ularga ziyon yetkazmagan holda o'rganish, hamda tabiatning betakror, o'ziga xos joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashiga yordam beradi.

Ekoturizmning tamoyillari ekoturizm yo'nalishining rivojlanishidagi tartib me'yorlari asosida belgilanadi. Ya'ni ekoturizmning tamoyillari ekoturizmning mohiyatini, mazmunini, maqsadi va vazifalarini o'zida aks ettirishi kerak.

O'zbekistonda dunyoga mashhur, chet el sayohatchilarini jalb qiluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, tarixiy yodgorliklar bo'lishi bilan birga, respublikamiz ekoturizm bilan bog'liq betakror go'zal tabiati, landshafti (sahro, cho'l, adirlar, past tekisliklar, tog'lar), xilma-xil noyob

o'simlik va hayvonot dunyosi, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan nodir arxeologik topilmalar, dunyoda kam uchraydigan geologik kesimlari kabi 8000 dan ortiq yodgorliklar mavjudligi bilan ham ajralib turadi. Respublikamizda 2006- yildan boshlab, ekologik turizmni rivojlantirish uchun dastlabki qadamlar tashlandi.

Hozirgi kunda respublikamizda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan. Masalan, ekoturizm marshrutlarida hududdagi aholining turmush tarziga xos ravishda ekoturistlar kutib olinadi, ularning yashashi ta'minlanadi. Ekoturistlar ushbu hududlarning betakror tabiati bilan birga aholining qadimiy madaniyati va tarixini o'zida mujassamlashtirgan turli-tuman an'analari, udumlari, bayramlari ishtirokchisiga aylanadi. Shuningdek, mahalliy aholi tomonidan milliy taomlarni tatib ko'rish, hamda bevosita tayyorlov jarayonida ishtirok etishlari ham mumkin.

Go'zal va betakror tabiat, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, diqqatga sazovor tarixiy-madaniy obidalar ekoturizmni jadal rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tabiiy va tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklarni hisobga olish, ularni muhofaza qilish alohida ahamiyatga ega. Bu borada mintaqada ishlab chiqilgan maxsus rejaga ko'ra, 100 dan ortiq hudud va ob'ekt tanlab olinib, cho'l, adir va tog' mintaqalarining o'ziga xos geohududlari o'rganildi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning alohida takrorlanmas ob'ekti bo'lib, ilmiy, tarixiy va madaniy-estetik ahamiyatga ega. Masalan, sharsharalar, g'orlar, tog' jinslari, ochilib qolgan joylar, issiq suvli favvoralar, paleontologik ob'ektlar, ayrim yoshi asrlarga teng daraxtlar shular jumlasidandir. Ular dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud. Ba'zan ular katta hududlarni egallaydi. Masalan, AQSHda «Dinazavrlar uyasi» deb nom olgan dara 82 ming gektar maydonni egallaydi.

Xorijiy mutaxassislar O'zbekiston Respublikasini uning nodir tabiiy resurslari va tarixiy-madaniy merosi tufayli turistik jihatdan istiqboli porloq malakatlar jumlasiga kiritadilar. Turistik sohaga rahbarlikni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi «O'zbekturizm» kompaniyasi tuzilgan bo'lib, u davlat manfaatlari va xalqaro amaliyot me'yorlarini hisobga olgan holda turizm faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Mamlakatda Ekoturizmni rivojlantirish orqali biz quyidagi natijalarga erishamiz:

- Aholining ekologik savodxonlik darajasining oshishiga;
- Mahalliy aholining qo'riqlanadigan joylarga estetik va iqtisodiy qiymatga ega joy sifatida qarashlariga va ekoturizmni rivojlanishi hamkorlikda ishlashga turtki bo'ladi;
- Hududlarga ijtimoiy va iqtisodiy sharoitning yaxshilanishiga shuningdek, mahalliy aholi uchun yangi ish joylarining yaralishiga;
- Moliyaviy jihatdan qo'llab- quvatlovchi qo'shimcha fondlarning paydo bo'lishiga;
- Tabiat qo'riqxonalari, rezervatlarini tashlik qilishga.

Hozirgi kunda ekoturizm birmuncha yangi ko'rinishdir. Uni ommalashtirish kerak. Birinchi navbatda ekoturizm nafaqat iqtisodiyotga balki mahalliy aholi uchun ham foydali ekanligini, shuningdek ekoturizm tabiatni saqlashning eng oqilona ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish kerak. O'sha hududda yashovchi aholini shu sohada ishlashga jalb qilish lozim ya'ni ular mutaxassis kadr sifatida ish olib borishlari lozim. Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida fuqarolarda ekologik madaniyatni, ta'lim-tarbiyani shakllantirish talab etiladi. Ayni paytda ekoturizm va unga tegishli tashkilotlar to'g'risida to'laqonli ma'lumot bera oladigan axborot resurslarini yaratish va takomillashtirish lozim. Shu bilan

birgalikda shahar tashqarisida joylashgan kichik mehmonxonalar va guest houselarga litsenziya olish tartibini soddalashtirish kerak. Va asosiysi, bu yerda turizmning rivojlanishi tabiatga zarar yetkazmasligiga, keluvchi kapital urf-odatlar va asosiy elementlarning yo'qolib ketishiga olib kelmasligini nazorat qilish talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. SH.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF5326 sonli Farmoni
3. Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3510 sonli Qarori
4. Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7 fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3514 sonli Qarori
5. Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611 sonli farmoni.
6. Qurilish me'yorlari va qoidalari, Sanatoriylar va sanathoriylar majmualari QMQ 2.08.03-98, O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va Qurilish Qo'mitasi.Toshkent 1998.
7. Qurilish me'yorlari va qoidalari, Jamoat binolari va inshootlari. QMQ 2.08.02.96. O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va Qurilish Qo'mitasi.Toshkent 1996.
8. A.G.Plaxotnikov Основные принципы изображения геометрических тел конструктивно-геометрическим способом.
9. A.E. Enin, K.S. Filimonsev Algoritm razrabotki proektnogo predlozheniya formirovaniya opornogo inzhenernogo universiteta g. Voroneja.
10. A.G. Xaritonova. Adaptatsiya vysotnoy zastroyki v strukture sovremennogo goroda.
11. A B. Kosolapov, Teoriya i praktika ekologicheskogo turizma: uchebnoe posobie – M.: KNORUS, 2005. – 240 bet.
12. Beryozko Olga Mixaylovna. "Landshaftnoe planirovanie i organizatsiya ob'ektov ekologicheskogo turizma" Minsk 2016, 5-bet
13. Bessarab, D. A. Ekologicheskiy turizm v zarubejnoj Evrope: posobie dlya studentov vuzov. – Minsk: TetraSistems, 2013. – 303 bet.
14. D.O.Azimova, D.SH.Yodgorova, L.SH.Egamberdiyeva, B.T.Jabborov. Bioxilma-xillik va uning muxofazasi.-T. "Fan va texnologiya", 2019, 196 bet.
15. Kayumov, H., & Israyilov, E. (2022). Environment as the basis and perceptions of monuments of architecture and historical cities of Uzbekistan. *academia globe: inderscience research*, 3(10), 112-125.
16. Каюмов, Х. И. (2021). Проблемы сохранения архитектуры исторической среды древнего города и развитие туризма. *интернаука*, (20-1), 6-10.

17. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejalari tahlili. *Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali*, 2(1), 117-122.
18. Fozilova, Z. Q. (2023). Irrigation System of Samarkand City. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 2(2), 64-68.
19. Салохиддинова, Д. З. (2022). Архитектурная среда Самарканда: традиции и современность.
20. Салохиддинова, Д. З., & Солиев, Ф. Ф. (2023). Features of the landscape organization of the territories of preschool educational institutions. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 162-167.